XALQ DEPUTATLARI PAYARIQ TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 29 - dekabr VI-95-214-7-100-K/23 Payariq tumani hokimligi

Samarqand viloyati Payariq tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

Byudjet kodeksining 27 va 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-son Qonuni, Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-94-126-7-0-K/23-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi VI-94-126-7-0-K/23-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Payariq tumani mahalliy byudjetiga viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 153 557 353,0 ming so‘m shundan mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha transfertlar 46 204 000,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi;

- tuman budjetining aylanma kassa mablag‘i 1 868 000,0 ming so‘m miqdorda belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3.Quyidagilar:

- 2024-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari 1 –ilovaga muvofiq;

- 2024-yil uchun tuman mahalliy budjetining hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 2 603 354 ming. so‘m miqdorida tasdiqlansin.

5. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Ollanov), tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i (O‘.Bayzaqov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (K.Narimanov)lar tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

- budjet daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlash;

- budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

- tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

- budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratish;

- soliq bazasini kengaytirish, iqtisodiy salohiyatni oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatish;

- tegishli ravishda hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib borilishini ta’minlasin.

7. Ushbu qarori rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi (L.Kazakbayev) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Ollanov)lar zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **I.I.Djabborov**

Xalq deputatlari Payariq tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-95-214-7-100-K/23-son qaroriga
1-ilova

Payariq tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming.so‘m

T/R	**Daromad turlari**	**Jami**
JAMI		**138 874 400,0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	8 002 400,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	36 850 000,0
3	Aksiz solig‘i, jami	14 707 000,0
	shu jumladan:	
	- yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	14 707 000,0
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 200 000,0
5	Yuridik shaxslar yer solig‘i	10 167 000,0
6	Aylanmadan olinadigan soliq	8 950 000,0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	16 528 000,0
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	28 800 000,0
9	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	2 030 000,0
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5 100 000,0
11	Norudaqurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	0,0
12	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	90 000,0

13	Yig‘imlar	5 450 000,0

Xalq deputatlari Payariq tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-95-214-7-100-K/23-son qaroriga
2-ilova

Payariq tumani mahalliy budjetidan 2024-yilgi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming.so‘m

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**292 431 753,0**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	38 158 611,0
2	Tibbiyot birlashmasi	151 523 431,0
3	Madaniyat bo‘limi	5 826 811,0
4	Yoshlar siyosati va sport bo‘limi	13 602 736,0
5	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	5 608 750,0
6	Irrigatsiya bo‘limi	2 012 500,0
7	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	1 604 786,0
8	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi	6 354 523,0
9	Soliq inspeksiyasi	5 850 570,0
10	Tuman hokimligi	61 889 035,0